

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK ARAFASIDA IJTIMOY-SIYOSIY HOLAT VA ICHKI ISHLAR ORGANLARI JAMOAT TARTIBINI SAQLASH BO'YICHA ISLOHOTLARINING ZARURATI

Temirova Mashhura Muhammadaaminovna

Qo'qon davlat universiteti, professor.

e-mail: mashhuratemirova@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-8741-9168>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada O'zbekistonda mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-siyosiy holat, ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha faoliyati, ushbu yo'nalishdagi islohotlarning zarurati hamda tizimda amalga oshirilgan o'zgarishlar yoritiladi. Shuningdek, maqolada respublikadagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda jamoat tartibini saqlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning asosiy bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ichki ishlar, jamoat, huquq, millat, erkinlik, xavfsizlik, jinoyat, jazo, huquqbuzarlik, tartib, intizom.

ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ НАКАНУНЕ НЕЗАВИСИМОСТИ И НЕОБХОДИМОСТЬ РЕФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ОХРАНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА

Темирова Машхура Мухаммадааминовна

Кокандский государственный университет, профессор.

Аннотация.

В статье рассматриваются общественно-политическая ситуация в Узбекистане накануне обретения независимости, деятельность органов внутренних дел по охране общественного порядка, необходимость проведения реформ в данном направлении, а также изменения, осуществлённые в системе органов внутренних дел. Кроме того, на научной основе анализируются основные этапы реализации мер по обеспечению общественного порядка с учётом политической, экономической и социальной ситуации в республике.

Ключевые слова: органы внутренних дел, общество, право, нация, свобода, безопасность, преступление, наказание, правонарушение, порядок, дисциплина.

THE SOCIO-POLITICAL SITUATION IN UZBEKISTAN ON THE EVE OF INDEPENDENCE AND THE NECESSITY OF REFORMING INTERNAL AFFAIRS BODIES TO ENSURE PUBLIC ORDER

Temirova Mashhura Muhammadaaminovna

Kokand State University, Professor.

Abstract.

This article examines the socio-political situation in Uzbekistan on the eve of independence, the activities of internal affairs bodies in maintaining public order, the necessity of reforms in this area, and the changes implemented within the internal affairs system. In addition, the main stages of measures undertaken to maintain public order are analyzed from a scholarly perspective, taking into account the political, economic, and social conditions in the republic.

Keywords: internal affairs bodies, society, law, nation, freedom, security, crime, punishment, offense, public order, discipline.

Kirish. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilgani shu zaminda asrlar osha istiqomat qilib kelgan avlodu ajdodlarimiz orzu-umidlarining ro'yobga chiqishi, istiqloq yo'lida to'kilgan qutlug' qonning natijasi, xalq yo'lining qaror topishi hamda adolatning tantanasi bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek xalqi o'zining boy va qadimiy tarixini qaytadan kashf etish imkoniga ega bo'ldi. "O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz" [1; 5-b.]. Mana shu sinovlarga boy o'tmish, mana shu so'nmas madaniyat o'zbek xalqini buyuk va yorqin kelajak sari odim tashlashga, qiyinchilik va sinovlarni yengib o'tishga undaydi, mushtarak maqsadlar yo'lida birlashtiradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev aytganlaridek: "O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan yengib o'tishga qodir, deb baralla aytishga to'la asos beradi" [2; 7-b.].

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida ichki ishlar organlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda malakali milliy kadrlar tayyorlash tizimini joriy etishga qaratilgan dastlabki o'zgarishlar amalga

oshirildi. Jumladan, 1991-yil 25-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qarori [3] asosida O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi. Mazkur qaror bilan vazirlikning Nizomi va tuzilmasi tasdiqlandi. Keyinchalik ushbu sana mamlakatimizda Ichki ishlar organlari xodimlari kuni sifatida belgilandi.

Mazkur davrga hamohang ravishda, 1989–1990-yillarda mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq nihoyatda murakkab va og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat hukm surgan edi. Har bir sohada bo'lgani kabi, ichki ishlar organlari tizimida ham keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish, ulkan vazifalarni hal etish hamda yechimini kutayotgan muammolarni bartaraf etish zarurati yuzaga keldi.

Vujudga kelgan murakkab vaziyatdan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga uringan ayrim shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari natijasida giyohvandlik, diniy ekstremizm, bosqinchilik kabi og'ir jinoyatlar sonining ortishi kuzatildi. Bu esa huquq-tartibotni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va fuqarolarning xavfsizligini himoya qilish borasida ichki ishlar organlari zimmasiga yanada katta mas'uliyat yukladi.

Shuni alohida qayd etish o'rinliki, mazkur og'ir va sinovli davrlarning barchasida ichki ishlar organlarining mard va jasur, yuragida Vatan taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usi jo'sh urgan, shijoatli xodimlari tomonidan Vatan himoyasi yo'lida o'z jonlarini ayamay, jinoyatchilikka qarshi mardonavor kurash olib borildi. Ular og'ir va murakkab vaziyatlarda ham o'z xizmat burchiga sodiqlik, jonbozlik, qat'iyat, matonat va fidoyilik kabi yuksak insoniy fazilatlarni namoyon etib, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga munosib hissa qo'shdilar.

Bu boradagi aniq faktlarni respublikamiz hududida 1989–2010-yillar davomida sodir etilgan terrorchilik xurujlari, qo'poruvchilik harakatlari hamda turli ko'rinishdagi ommaviy tartibsizliklar misolida ko'rish mumkin. Mazkur murakkab va xavfli vaziyatlarni bartaraf etish, jamoat tartibi hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash jarayonida ichki ishlar organlari xodimlari yuksak jasorat, matonat va fidoyilik namunasini ko'rsatdilar. Ayniqsa, terrorchilik va qo'poruvchilik harakatlariga qarshi kurashish chog'ida xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ko'plab ichki ishlar organlari xodimlari halok bo'ldilar. Ularning hayoti va faoliyati mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, huquq-tartibotni mustahkamlash hamda fuqarolarning xavfsizligini himoya qilish yo'lida ko'rsatgan fidoyiliklarining yorqin namunasi sifatida baholanishi mumkin.

Xususan, buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

– 1989-yil 3–12-iyun kunlari Farg'ona viloyatida ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelib, Marg'ilon, Toshloq, Qo'qon, Farg'ona va Quvasoy shaharlarida, shuningdek, Farg'ona, Oxunboboyev va O'zbekiston tumanlarida istiqomat qiluvchi turk-mesxeti millatiga mansub fuqarolarga nisbatan qotillik, ularning mol-mulkini talon-toroj qilish kabi jinoyatlar sodir etilgan, uy-joylari yoqib yuborilgan. Qariyb 70 mingdan ortiq fuqaro ishtirok etgan mazkur ommaviy tartibsizliklarning yanada kengayib ketishining oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan kechayu kunduz davomida tegishli amaliy choralar ko'rilgan [4; 30-b.]. Natijada ommaviy tartibsizliklar to'liq bartaraf etilishiga erishilgan;

– 1990-yil 19–21-fevral kunlari Toshkent viloyatining Bo'ka tumanida ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelib, "Oktyabrning 40 yilligi" sovxosi va "Qorabog'" qishlog'ida istiqomat qiluvchi turk-mesxetililar bilan bog'liq ziddiyatlar keskinlashgan. Mazkur tartibsizliklar ham ichki ishlar organlari xodimlarining fidokorona xizmatlari natijasida to'liq bartaraf etilgan. Shu jarayonda qariyb 2 ming nafar turk-mesxeti xavfli hududdan Parkent tumani hududiga evakuatsiya qilinib, "Kumushkon" sanatoriyasiga joylashtirilgan [5; 19–20-b.];

– 1990-yil 2–3-mart kunlari bir guruh shaxslar tomonidan turk-mesxetilarni sanatoriya hududidan olib chiqib ketish talabi ilgari surilib, ommaviy tartibsizliklar davom ettirilgan. Mazkur voqealar oqibatida 4 nafar shaxs, jumladan, 1 nafar militsiya xodimi halok bo'lgan. Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida yuzlab ichki ishlar organlari xodimlari turli darajadagi tan jarohatlarini olganlar;

– 1991-yil 9-dekabr kuni Namangan shahri hududidagi masjidlar atrofida "vahhobiy" diniy-ekstremistik oqimi tarafdorlari tomonidan qariyb 1 000 nafar dindor va mahalliy aholi vakillari to'plangan. Shahar hududidagi asosiy yo'llar to'silib, aholiga ommaviy ish tashlash uyushtirish to'g'risida da'vatlar qilingan. Shuningdek, viloyat hokimligi binosi atrofida aholini to'plab, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning kelishini talab qilganlar. Mazkur vaziyatning ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketishining oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan zudlik bilan maxsus profilaktik-amaliy tadbirlar amalga oshirilgan va natijada vaziyatning yanada keskinlashib ketishiga yo'l qo'yilmagan;

– 1994-yil 5-may kuni Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani hududida joylashgan 4-sonli bojxona blok-postida xizmat olib borayotgan militsiya xodimi B. Quchqarov diniy-ekstremistik oqim a'zolarining hujumiga faol qarshilik ko'rsatgan. Yuzaga kelgan qurolli to'qnashuv vaqtida u xizmat burchini bajarish chog'ida qahramonlarcha halok bo'lgan;

– 1997-yil 24-mart kuni Namangan shahri hududida xizmat olib borayotgan viloyat IIBning ikki nafar xodimi A. Tursunov va S. Olimov DEO a'zosi, Namangan shahri Qorako'l ko'chasi, 14-uyda ro'yxatda turgan, 1967-yilda tug'ilgan A. Yo'ldoshev va uning sheriklari bilan yuz bergan qurolli to'qnashuvda mardlarcha halok bo'lganlar. Mazkur otishma jarayonida yetti nafar jinoyatchi otib o'ldirilgan, A. Yo'ldoshev esa yaralanib, qo'shni Qirg'iziston hududiga qochib o'tishga muvaffaq bo'lgan. 1998-yilda A. Yo'ldoshev Qirg'iziston Respublikasi hududida sodir etgan terrorchilik harakati davomida otib o'ldirilganligi ma'lum bo'lgan;

– 1998-yil 17-dekabr kuni Xorazm viloyati Hozorasp tumani hududining Turkmaniston bilan chegaradosh qismida ikki nafar terrorchilik guruhi jangarilari tomonidan ushbu hududda xizmat olib borayotgan chegara qo'shinlari va ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan qurolli hujum uyushtirilgan. Natijada IIB xodimlari A. Quvondiqov va M. Masharipovlar yaralangan. Shuningdek, 29-dekabr kuni viloyatdagi "Gaz Achik" hududining Turkmaniston bilan chegaradosh qismida to'rt nafar terrorchilik guruhi a'zolari bilan yuz bergan qurolli to'qnashuv natijasida bojxona

xizmati xodimi B. Avezov va IIB xodimi S. Ishniyazovlar halok bo'lgan;

– 1999-yil 16-fevral kuni Toshkent shahrida qator portlashlar sodir etilgan. Sh. Rashidov ko'chasida qoldirilgan ikki avtomashinaga joylashtirilgan portlovchi moslamalarning harakatga keltirilishi natijasida qo'poruvchilik harakati amalga oshirilgan. Jumladan, soat 10:55 da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi oldida "GAZ-21" rusumli avtomashinaga o'rnatilgan portlovchi moslama, soat 11:00 da X. Yusuf ko'chasida "ZAZ" rusumli avtomashinaga o'rnatilgan qo'lbola portlovchi moslama portlatilgan. Shuningdek, soat 11:20 da Markaziy bank binosi oldida "Audi-100" rusumli avtomashina hamda soat 12:00 da Yakkasaroy tumani A. Qahhor ko'chasi, 22-uyda portlashlar sodir etilgan. Mazkur qo'poruvchilik harakatlari natijasida 13 nafar fuqaro, jumladan, bir nafar ichki ishlar organi xodimi halok bo'lgan, 128 nafar shaxs esa turli darajadagi tan jarohatlari olgan. Keyinchalik mazkur voqealarning barcha ishtirokchilari aniqlangan bo'lib, ularning bir qismi qo'lga olish jarayonida yo'q qilingan, boshqa qismi qo'lga olinib, sud tomonidan tegishli jazoga tortilgan, ayrimlari esa xorijiy davlatlar hududida sodir etilgan terrorchilik harakatlari davomida yo'q qilingan;

– 1999-yil 30-mart kuni ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan Toshkent shahri Hamza tumanining Farg'ona yo'li ko'chasidagi ko'p qavatli uyda yashiringan "Turkiston islom harakati" tashkiloti a'zolarini qo'lga olishga qaratilgan maxsus tadbir o'tkazilgan. Mazkur tadbir davomida qurolli qarshilik ko'rsatgan ikki nafar terrorchilik guruhi a'zosi yo'q qilingan. Voqea joyidan granata, o'qotar qurollar hamda jinoyatga aloqador boshqa ashyoviy dalillar olib qo'yilgan. Shu kunning o'zida bir qator o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganligi sababli qidiruvda bo'lgan "vahhobiy" diniy-ekstremistik oqimi faollaridan birining Toshkent shahri Hamza tumanining Buyuk Ipak yo'li ko'chasidagi uyda yashiringanligi aniqlangan. Uni qo'lga olish vaqtida ko'rsatilgan qurolli qarshilik natijasida mazkur shaxs otib o'ldirilgan;

– 1999-yil 15-noyabr kuni Toshkent viloyati Ohangaron tumani hududidagi Ugom-Chotqol davlat tabiat bog'ida yashiringan, qurol-yarog' bilan qurollangan 14 nafar terrorchilik guruhi a'zosi aniqlangan. Natijada ichki ishlar organlari xodimlari bilan ular o'rtasida qurolli to'qnashuv yuzaga kelgan. Mazkur to'qnashuv davomida Yangiobod qo'rg'oni IIB boshlig'i V. Govoruxin, uning o'rinbosari B. Po'latov hamda tezkor vakil A. Qoraboyev halok bo'lgan. 16-noyabr kuni "Yangiobod" dam olish maskani hududini havodan kuzatish jarayonida to'rt nafar jangarining tog'li yo'nalishdagi izlari aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi IIV "Bars" maxsus jangovar otryadi xodimlaridan iborat tezkor guruh tomonidan mazkur shaxslar ta'qib qilingan va yuzaga kelgan qurolli to'qnashuv davomida ular yo'q qilingan;

– 2000-yil 25-iyul kuni "Turkiston islom harakati" terrorchilik tashkilotining qurollangan bir guruh jangarilari xufyona harakatlanish maqsadida harbiy kiyim kiyib, qo'shni Tojikiston hududidan O'zbekiston davlat chegarasini yashirin yo'llar orqali kesib o'tib, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani tog'li hududlariga kirib kelganligi aniqlangan. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan 4–11-avgust kunlari "Kishtut", "Xamidarcha" va "Angorqozi" qishloqlarida maxsus tadbirlar o'tkazilgan. Mazkur tadbirlar davomida jami 18 nafar jangari yo'q qilingan, qolgan terrorchilar esa qo'shni davlat hududi orqali Afg'onistonga o'tib ketgan.

XXI asr bo'sag'asida jahonda yuz bergan geosiyosiy o'zgarishlar va globallashuv jarayonlarining jadallashuvi O'zbekistonda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, mavjud hamda potensial tahdidlarga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etdi. Xususan, 1999-yil 16-fevralda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari ichki ishlar organlari faoliyatida mavjud bo'lgan ayrim tizimli muammolar va kamchiliklarni yanada yaqqol namoyon etdi [6].

Shu munosabat bilan Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashning yangi konsepsiyasi joriy etildi. Mazkur konsepsiya asosida shaharda faoliyat yuritgan militsiya uchastka nozirlari o'rniga profilaktika inspektori shtat birliklari tashkil etildi. Shuningdek, joylarda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida "Mahalla posbonlari" hamda "Yarashtirish komissiyalari" kabi jamoat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur tuzilmalar ichki ishlar organlarining aholi bilan hamkorligini kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish va uning sodir etilishiga imkon beruvchi omillarni barvaqt aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 27-martdagi farmoni va uning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida ichki ishlar organlarining asosiy sohaviy xizmatlari faoliyatida yangi islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar natijasida ichki ishlar organlarining tashkiliy-tuzilmaviy asoslari takomillashtirilib, ularning huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi, avvalo, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikning turli ko'rinishlariga qarshi kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda demokratik islohotlarning izchil va uzviy davom etishini ta'minlashdan iborat bo'ldi. Shu jihatdan, mazkur jarayonlar "kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi [7; 44-b.].

Keyingi davrda respublikada fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasini amalga oshirishga qaratilgan yaxlit huquqiy va tashkiliy tizimni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayon ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash va ularning jamiyatdagi o'rnini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

O'z vaqtida va istiqbolni hisobga olgan holda amalga oshirilgan mazkur tashkiliy-huquqiy o'zgarishlar mustaqil O'zbekiston davlatining shakllanishi va rivojlanishi, xalqaro maydonda munosib o'rin egallashi, shuningdek, mintaqadagi ayrim davlatlarda keskinlik va beqarorlik holatlari saqlanib qolgan sharoitda mamlakatda tinchlik,

osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 5. – ISBN 978-9943-28-948-2. – URL: [JDPU elektron kutubxonasi](#)
2. Mirziyoyev Sh. M. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 7. – ISBN 978-9943-28-948-2. – URL: [JDPU elektron kutubxonasi](#)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi 270-son qaroriga 1-ilova. *O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida Nizom.* – URL: [LexUZ](#)
4. Almatov Z., Sattorov A. *Ortda qolgan tahlikali kunlar.* – Toshkent: Niso Poligraf, 2022. – 184 b. – B. 30. – URL: [Manba](#)
5. Boymirzayev X. K. *O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati: o'quv-uslubiy qo'llanma.* – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2022. – 64 b. – B. 19–20. – URL: [Namangan davlat universiteti](#)
6. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. *Vazirlik tarixi.* – URL: [O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi](#)
7. Karimov I. A. *Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.* – Asarlar. 10-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 432 b. – B. 44. – URL: [Islom Karimov asarlari](#)